

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

### **Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari**

*O'zbekiston Respublikasi*

*Bank-moliya akademiyasi Magistranti*

*Xolmurodov Abdurasul Saydullayevich*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari, iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati odatda ularning keng ko'lamdagи moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'langan. Asosiy e'tiborniboshqaruv samaradorligini oshirish, kompaniya kapitallashuvini oshirish kabi masalalar bo'yicha joriy qilinishi lozim bo'lgan yengilliklar to'g'risida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'sischi, aksiyadorlik jamiyatlari, aksiyadorlik, aksiya, byudjet, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi. xorijiy investorlar.

**Kirish.** Jahonning turli mamlakatlarida iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida moliyaviy hisobot auditining metodologik asoslarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish, auditorlik risklarining maqbul to'plamini aniqlash, moliyaviy hisobot auditida muhimlik darajasini aniqlash, auditorlik xulosalari va hisobotlarini tuzish masalalari o'z yechimini topgan. E'tirof etish joizki, tadqiqotlar yo'nalishida ayni paytda moliyaviy hisobot auditida firibgarliklarni aniqlash va bartaraf etish, auditorlik tekshiruvlarida tahliliy amallarni qo'llash, ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash jarayonini takomillashtirishga erishilgan. Lekin xalqaro standartlar talablari darajasida moliyaviy hisobot auditni metodologiyasini tashkil qilish bilan bog'liq dolzarb masalalar hanuzgacha to'liq yechimini topmagan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy mulkka keng e'tibor qaratiladi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Xususan, respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan xususiy mulkka keng e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz Konstitutsiyasida ham xususiy mulk daxlchizligi belgilangan: "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haq<sup>1</sup>. Xususiy mulk shakllaridan eng optimali aksiyadorlik jamiyatidir.

Aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati odatda ularning keng ko'lamdagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'lanadi, shu boisdan aksiyadorlik jamiyatlari olim va mutaxassis-amaliyotchilar e'tiborini jalg qiladigan ob'ekt hisoblanadi. Tadqiqotchilar asosiy e'tiborni amaliy xarakterdagi muammolarga, chunonchi, boshqaruv samaradorligini oshirish, kompaniya kapitallashuvini oshirish kabi masalalarga qaratadi. Bunday vaziyat ma'lum darajada keng doiradagi shaxslar (aksiyadorlar, investorlar va kompaniyalar faoliyatiga aloqador bo'lgan boshqa bozor ishtirokchilari) aksiyadorlik kapitalini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy vositalar majmuini rivojlantirishga so'rovini aks ettiradi. Bunday tadqiqotlarning muhim ekanligiga qaramay, ta'kidlash joizki, aksiyadorlik jamiyatlari milliy iqtisodiyotda egallab turgan mavqeい yetarli emas.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda jamiyat deb yuritiladi) deb e'tirof etiladi<sup>2</sup>.

Aksiyadorlik jamiyati – nafaqat huquq sub'ekti va biznesni tashkil qilish usullaridan biri – bu o'zining ko'pincha qarama-qarshi bo'lgan qiziqishlari va manfaatlari bilan uning doirasiga jalg qilingan ko'p sonli shaxslardan iborat bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hamdir. Shu munosabat bilan aksiyadorlik jamiyatlari tadqiqot uchun murakkab ob'ekt hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rnini tushunish, bu uchun aksiyadorlik kapitalining o'sishi va barcha xo'jalik faoliyati sohalarida ustunlik qilishining oqibatida amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar xarakterini tadqiq etish lozim. Aksiyadorlik jamiyatlari dastavval ayrim

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: -Т.: «Ўзбекистон», 2015 й. -40 б.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг хукуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида"ги Қонуни. 2014 йил 6 май, ЎРҚ-370-сон.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

davlatlarning iqtisodiy holati yuqori darajaga yetib, sifat jihatidan o'sishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni rivojlantirishning keng ko'lardagi vazifalarini hal qilishga qodir bo'lgan biznesni tashkil qilishning yangi shakllariga ehtiyoj yuzaga kelgan paytda vujudga keladi. Aksiyadorlik jamiyatlarini muvaffaqiyat bilan bu vazifaning uddasidan chiqa oldi. Xo'jalik yuritish amaliyotining ko'rsatishicha, faqat aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yirik biznesgina davlatning iqtisodiy farovonligini ta'minlash uchun zarur shartlarni ta'minlashi mumkin. Boshqa tomondan, biznesni tashkil qilishning aksiyadorlik shakli o'z ustunliklarini faqat rivojlangan iqtisodiyot sharoitlarida namoyon etishi mumkin. Shunday qilib, o'zini-o'zi o'stiradigan qiymat sifatida kapital faoliyatini eng yaxshi tarzda ta'minlaydigan iqtisodiy tuzilma shakllanadi. Iqtisodiy nuqtai nazaridan aksiyadorlik jamiyati doimiy o'sishga intilishda kapitalga ehtiyojni amalga oshirish mexanizmidir. Bu eng samarali mexanizm kapitalni markazlashtirish va undan foydalanish funksiyasini eng yaxshi tarzda bajaradi, biroq boshqa tomondan, bu biznesni tashkil qilishning boshqaruv va nazorat nuqtai nazaridan eng murakkab bo'lgan shakli hamdir.

Aksiyadorlik mulki xususiy mulkning o'zgarish va rivojlanish jarayonidagi qonuniy natijasi bo'lib, bunda rivojlanishning ma'lum bir bosqichida ishlab chiqarish ko'lami, texnologiyalar darjasи, moliyani tashkil qilish tizimi aksiyadorlarning ko'ngilli ishtiroki negizida ishlab chiqarishni tashkil qilishning tamomila yangicha shakli uchun sharoitlar yaratadi.

Fikrimizcha, mulkchilikning aksiyadorlik shakli uchta funksiyani bajarishi mumkin. Birinchidan, u kapitalni jamg'arish va o'tkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, aksiyadorlarning ishlab chiqarishni boshqaruvchi apparat faoliyatini nazorat qilish va mulkni kengaytirishga jalg qilish vositasi hisoblanadi. Uchinchidan, aksiyador va xodim bir kishi timsolida namoyon bo'ladigan xo'jalik motivatsiyasi yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunda agar ikkinchi funksiya har qanday aksiyadorlik jamiyati uchun xos bo'lsa, birinchi va uchinchi funksiya AJ muayyan turiga (ochiq yoki yopiq), aksiyador-xodimlar bor yoki yo'qligiga qarab mavjud bo'lmasligi mumkin.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Aksiyadorlik jamiyatni uchta guruhning manfaatlari o‘zaro aloqalarga asoslanadi: o‘z mablag‘larini jamiyatga ishonib topshirgan aksiyadorlar, jamiyatga rahbarlik qilishni amalga oshiruvchi boshqaruv organlari va u yerda ishlaydigan shaxslar (yollanma xodimlar). Ushbu strukturali tarkibdan kelib chiqadiki, ko‘rsatilgan guruhlarning birortasi aksiyadorlik jamiyatida hal qiluvchi ta’sir ko‘rsata olmaydi. Aksincha, ularning manfaatlarini maqsadga muvofiq uyg‘unlashtirish zarur bo‘lib, bunda har bir guruhga alohida o‘rin ajratiladi.

Aksiyadorlik jamiyatni kapitali aksiyalar (nominal qiymati bir xil bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar) bilan ifodalanadigan o‘zaro teng bo‘lgan ma’lum bir qismlarga ajratiladi. AJ ta’sischilarining ulushi teng bo‘lishi ham, teng bo‘lmasligi ham mumkin – bu ta’sis hujjatlar tomonidan oldindan belgilab qo‘yiladi. Bitta aksiyaga to‘g‘ri keladi ulushlar tengligi majburiy deb ataladi. Aksiya ustav kapitali birligini ifodalaydi. AJ muayyan a’zolari turli sondagi aksiyalarga ega bo‘lishi mumkin va ko‘pincha shunday bo‘ladi ham, demak, ulardan har birining umumiyligi ulushi ham turlicha bo‘lishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatida to‘plangan yirik kapital malakali boshqarishni talab qiladi. Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish murakkab organlar tizimi yordamida amalga oshiriladi. Ular qatoriga aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, direktorlar kengashi, kuzatuv kengashi kiradi. Boshqaruv funksiyalari aksiyalarga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan ham, yollanma xodimlar (menejerlar) tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Boshqa organlar tashkil qilish imkoniyati ham mavjud bo‘lib, ularning vakolatlari jamiyat ustavida belgilab qo‘yiladi.

Aksiyalarni ommaviy ravishda joylashtiriladigan AJ ko‘plab shaxslarning, jumladan, ular o‘rtasida ishonchli munosabatlar o‘rnatilmagan shaxslar o‘rtasidagi manfaatlarga daxl qilishini hisobga olib, aksiyadorlik jamiyatlari yillik hisobot, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot kabi hujjatlar taqdim etishga majbur bo‘ladi. Bu talab qonunchilikda ham belgilab qo‘yilgan, jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

Bu yerda taftish komissiyasi a’zolari, auditorlar ko‘zda tutiladi. Jamiyat

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

yoki uning filiali boshqarma a'zolari, ta'sischilar, AJda ma'lum bir ustunlikdan foydalanadigan shaxslar auditorlar sifatida tanlanishi mumkin emasligi bejizga emas. Boshqa tayyorlagan hujjatlar to'g'riligini tekshirish natijalari aksiyadorlarga umumiy yig'ilishda yetkaziladi. Yillik hisobot tasdiqlanganidan so'ng e'lon qilinishi lozim.

Aksiyadorlik shakli bitta korxonaga bir nechta, hattoki turli sabablarga ko'ra o'zлari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullana olmaydigan shaxslarning ham kapitalini jalb qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, javobgarlikning birgalikda kiritilgan hissa hajmiga qarab cheklanishi mablag'larni nafaqat istiqbolli ekanligi oshkora ko'rinish turgan loyihalarga, balki risk yuqori bo'lgan loyihalarga kiritish imkonini beradi va shu tariqa fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilishni tezlashtiradi. Shuningdek, tadbirkorning javobgarligi ko'lamenti chegaralash imkoniyati va zarurati mavjud bo'lgan joylarda uni haqiqatda universal va qo'llanishi mumkin qilib qo'yadigan mulkchilikning aksiyadorlik shakliga xos bo'lgan ko'plab ijobiy tomonlar mavjud.

Bu holat ayniqsa, ishlab chiqarish sohasidagi kutilmagan vaziyat ularni to'lashga hattoki butun mol-mulk ham yetmaydigan katta miqdordagi qarz va ziyon ko'rishga olib kelishi mumkin bo'lgan beqaror iqtisodiyot sharoitlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday riskka yakka tartibdagi tadbirkorlar va boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lgan ayrim yuridik shaxslar duch keladilar. Aksiyadorlik jamiyatlari moddiy va boshqa resurslardan samarali foydalanish, barcha qatnashchilarning shaxsiy va jamiyat manfaatlarini optimal uyg'unlashtirish imkonini ham beradi.

Butun dunyo miqyosida yirik zamonaviy zamonaviy korxona va tashkilotlarni tashkil qilishning asosiy shakli hisoblangan aksiyadorlik jamiyatlari xususiy shaxslar, turli korporatsiyalar va boshqa organlar mulkini birlashtirish negizida iqtisodiyotni tashkil qilish bo'yicha eng mukammal huquqiy mexanizmni ifodalaydi.

Aksiyadorlik jamiyatilarini mulkchilikning boshqa shakllari bilan taqoslaganda bir qator afzalliklarga ega.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Birinchidan, jamiyat ustav fondini to‘ldirish va o‘z faoliyatini kengaytirish uchun aksiyadorlarning mablag‘larini jalb qilish imkoniyatiga ega, bunda ushbu mablag‘lar qaytarilmaydi (jamiyat tugatilgan holatlar bundan mustasno), chunki aksiyalar jamiyat tomonidan qayta xarid qilib olinmaydi (qonunda belgilangan holatlardan tashqari), balki boshqa aksiyadorlarga qayta sotiladi, xolos.

Ikkinchidan, jamiyat faoliyatiga umumiylar rahbarlik qilish muayyan boshqaruvdan ajratilgan bo‘lib, bu eng mos keladigan boshqaruvchilar, direktorlarni tanlash va yollashga imkon beradi, aksiyadorlarni boshqaruv xodimlarini tanlashga jiddiy munosabatda bo‘lishga majbur qiladi, chunki har bir aksiyador jamiyatning kiritilgan mablag‘lar bilan samarali ishlashi uchun javob beradi.

Uchinchidan, ularning har birini jamiyat aksiyalarini xarid qilish yo‘li bilan korxonaning butun mehnat jamoasini mulkdorlarga aylantirish imkoniyati mavjud. Mehnat jamoasi a’zolarining aksiyalar xarid qilish vositasida AJ mulki va foydasida ishtirok etishi xo‘jalik motivatsiyasi yaratishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Aksiyador va xodim bir shaxs timsolida namoyon bo‘lgan hollarda xodimda korxona muvaffaqiyatidan bevosita manfaatdorlik vujudga keladi, chunki u yaxshiroq ishlay boshlaydi, boz ustiga, dividend ko‘rinishida foydadan yuqori foiz oladi. lekin faqat bugina emas.

Aksiyador-xodimda foydani iste’molga ham, jamg‘arishga ham yo‘naltirish uchun rag‘bat paydo bo‘ladi. Asosiy fondlarni tiklash va modernizatsiya qilishni ta’minlaydigan investitsiyalar aksiyalar qiymatining o‘sishiga va shu tariqa aksiyadorlar shaxsiy mulkining ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish va bu bilan bog‘liq ravishda aksiyadorlik jamiyatining bozordagi holatini yaxshilash ham aksiyalar qiymatining o‘sishiga olib keladi. Bunga shuni qo‘srimcha qilish mumkinki, xodimlarning aksiyalarga kiritilgan jamg‘armalari inflyatsiya sharoitlarida ham real qiymatini yo‘qotmaydi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

hisobotlar tashqi foydalanuvchilar uchun muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotlar o‘zida moliyaviy holat, moliyaviy natijalar va pul oqimlari to‘g‘risidagi axborotlarni o‘zida aks ettirib, faoliyatning barqarorligi xususida ma’lumotlar olishga imkon yaratadi. Moliyaviy hisobotlarga qo‘yiladigan eng asosiy talab ularda aks ettirilgan axborotlarning ishonchliligidir. Shu boisdan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, eng avvalo, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashi zarur.

### **Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-sentabrdagi PQ-3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagagi 207-con “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori.